

CASH EQUIVALENTS

Djumaeva Guzal Akhtamovna
assistant

Samarkand Institute of Economics and Service
Uzbekistan

PUL MABLAG'LARINING EKVIVALENTLARI

Djumayeva Guzal Axtamovna
assistant
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
O'zbekiston

Abstract: This article discusses monetary equivalents, their types in our republic and differences in international practice, improving the structure of monetary equivalents in the conditions of Uzbekistan.

Key words: funds, investments, savings, risk, securities, savings and deposit certificates, bonds.

Аннотация: В данной статье рассматриваются денежные эквиваленты, их виды в нашей республике и отличия в международной практике, совершенствование структуры денежных эквивалентов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: фонды, инвестиции, депозит, риск, ценные бумаги, сберегательные и депозитные сертификаты, облигации.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pul ekvivalentlari, uning turlari respublikamiz hamda xalqaro amaliyotdagi tafovutlari, O'zbekiston sharoitida pul ekvivalentlari tarkibini takomillashtirish borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pul mablag'lari, investitsiyalar, omonat, risk, qimmatli qog'ozlar, omonat va depozit sertifikatlari, obligatsiyalar.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-fevralda Respublikamizda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4611-sun Qaror imzolandi. Qabul qilingan hujjat tadbirkorlik sub'ektlarini MHXSga o'tishga tayyorgalik ko'rish va muvofiqlashtirish jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan pul mablag'lari va pul ekvivalentlari tushunchasi va hisobini xalqaro hisob talablariga asosan takomillashtirishni taqazo etadi. Korxonalarning to'lovga layoqatliliginin aniqlashda albatta pul mablag'lari ekvivalentlarini to'g'ri turkumlanishi, hisobining to'g'ri yuritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pul ekvivalentlari to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansi (moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot) hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda yuritiladi.

Quyidagi jadvalda 9-son BHMS “Pul oqimi to’g’risidagi hisobot”, 7-son BHXS “Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot”da pul ekvivalentlari to’g’risidagi ta’riflar keltirilgan:

1-jadval

9-son BHMS “Pul oqimi to’g’risidagi hisobot”¹	7-son BHXS “Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot”²
Pul ekvivalentlari — ma’lum pul mablag’iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o’zgarishlar tufayli uncha ko‘p bo‘lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo‘yilmalar).	Pul mablag’larining ekvivalentlari – belgilangan summadagi pul mablag’lariga oson aylantiriladigan va qiymatining o’zgarishi jihatidan sezilarsiz darajadagi riskka ega bo‘lgan, qisqa muddatli va yuqori likvidli investitsiyalardir.
Pul mablag’i ekvivalentlaridan asosan investitsiyalar va boshqa maqsadlar uchun emas, balki faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo‘yicha to’lovlar uchun foydalaniadi.	Pul mablag’larining ekvivalentlari investitsiya yoki boshqa maqsadlar uchun emas, balki qisqa muddatli majburiyatlar bo‘yicha to’lovlarni amalga oshirish maqsadida ushlab turiladi.
Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo‘lishi va qiymatining o’zgarishida biroz xavf bo‘lishi lozim.	Investitsiyani pul ekvivalenti deb hisoblash uchun, u belgilangan summadagi pul mablag’iga oson aylantiriladigan va qiymatidagi o’zgarishlar riski sezilarsiz darajada bo‘lishi lozim.
Investitsiya qisqa muddatda to’lanadigan bo’lsa, ya’ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to’lanadigan bo’lsa, uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo‘ladi.	Investitsiya odatda uning so’ndirish muddati qisqa bo’lsagina, ya’ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy yoki undan kam muddat ichida to’lanadigan bo’lsa, pul mablag’larining ekvivalenti deb hisoblanishi mumkin.
	Ulushli investitsiyalar pul ekvivalentlariga kirmaydi, bundan ular, aslini olganda, pul mablag’larining ekvivalentlari bo‘lgan holatlari istisno, masalan so’ndirilishiga qisqa muddat qolganda sotib olingan va so’ndirilish muddati aniq belgilangan imtiyozli aktsiyalar misolida kabi.

1-jadval. BHXS va BHMS bo‘yicha pul ekvivalentlari to’g’risidagi ta’riflar.

¹ O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 4.11.1998 yilda qayd etilgan, №519

² 1994 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rniib turibdiki, milliy va xalqaro satandartlarda pul ekvivalentlariga berilgan ta'riflar deyarli bir xil. Berilgan ta'riflarda bir-birini inkor etuvchi tushunchalar, atamalar mavjud emas.

Respublikamizda pul mablag'lari ekvivalentlarini xalqaro standartlar asosida alohida o'rganishi lozim. Pul mablag'larining ekvivalenti esa yuqorida keltirilgan ta'riflardan ma'lumki, "qisqa muddatli, belgilangan summadagi pul mablag'lariga oson aylantiriladigan va qiymatining o'zgarishi jihatidan ahamiyatsiz darajadagi riskka ega bo'lган yuqori likvidli investitsiyalar" deb ta'riflangan.

Demak, pul mablag'lari ekvivalentining so'ndirish muddati 3 oydan kam bo'lishi kerak. Bu hisobot kunidan boshlab 3 oy emas, balki shartnoma yoki xarid kunidan boshlab investitsyaning umumiyy muddatidir. Shuning uchun, agar tashkilotning 6 oylik omonatga investitsiyasi bo'lsa, bu pul mablag'larining ekvivalenti sifatida tasniflanmaydi.

21-sod BHMS ga asosan pul ekvivalentlari hisobi 5600-“Pul ekvivalentlari” schotida yuritilishi ko'rsatilgan. Bunga asosan 5610-“Pul ekvivalentlari (turlari bo'yicha)” schotida markalar, pattalar va boshqa pul ekvivalentlari nominal qiymati bo'yicha hisobga olinadi, deb ko'rsatilgan.³

Xalqaro amaliyotda pul mablag'larining ekvivalentlariga quyidagilar kiritilishi ko'rsatilgan:⁴

- Veksel (Commercial paper)
- Pul bozori investitsiya fondlari (Money market mutual funds)
- Depozitlari to'g'risidagi bank sertificatlari (Bank certificate of deposits)
- G'aznachilik qimmatli qog'ozlari (Treasury securities)
- Imtiyozli aksiyalar (Preferred stocks(less than 3 months maturity))

Bizningcha pul mablag'larining ekvivalentlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Bankdagi omonatlar

³ <http://bhms.uz/wp-content/uploads/2017/07/21.doc>

⁴ <https://www.wallstreetmojo.com/cash-equivalents/>

- Depozit sertifikatlari
- Pul bozoridagi moliyaviy instrumentlar
- Korporativ obligatsiyalar
- Davlat obligatsiyalari
- Evrobondlar

Bank omonati yoki depozit — bu pul mablag'la va jamg'armalarni bank hisobida saqlash va omonat miqdorini ko'paytirish uchun kiritishdir. Bank mijoji pul mablag'larini qo'yib, bankka o'z mablag'laridan foydalanishga ruxsat beradi va bank, o'z navbatida, omonatchiga qo'yilgan mablag' uchun foiz to'laydi.⁵

Depozit sertifikati - bu o'z mijozlariga (yuridik shaxslarga) tijorat banklari tomonidan chiqariladigan va chiqariladigan qimmatli qog'ozlar turlaridan biridir. Ushbu sertifikat bankka qo'yilgan omonat haqiqati va miqdorini va egasining belgilangan muddat oxirida foizlar bilan olish huquqini tasdiqlovchi va tasdiqlovchi hujjatdir. Hujjat omonatchining unda ko'rsatilgan miqdorni olish huquqini tasdiqlaydi. Mablag'larni ushbu sertifikatni bergen bankning istalgan filialidan olish mumkin.⁶

Korporativ obligatsiya xususiy korxonalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Tijorat banklarining yuqori foizli kreditlarini olish o'rniga keng aholi uchun daromadli korporativ obligatsiyalarni chiqarish hisobiga xo'jalik jamiyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ulardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar bilan ushbu moliyaviy instrument bank kreditining haqiqiy muqobiliga aylanishi uchun korporativ obligatsiyalarni chiqarish shartlari yanada soddalashtirildi.

Ya'ni:

- korporativ obligatsiyalar summasi jamiyatning o'z kapitali miqdoridan oshishi mumkin, bunda oshgan qismiga ta'minot bo'lishi;

⁵ <https://kapitalbank.uz/upload/medialibrary/c04/Omonat-bu-nima.pdf>

⁶ <https://lawyer-great.ru/uz/sberegatelnye-i-depozitnye-sertifikaty-sberegatelnyi/>

- so‘nggi bir yilda (ilgari so‘nggi uch yilda) rentabellik, to‘lovga qobiliyatatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi;
- obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo‘yicha xolis auditorlik xulosasi mavjudligi yetarli bo‘ladi.⁷

Davlat obligatsiyalari — davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘oz turi: Davlat obligatsiyalarini sotib oluvchilar — aholi, firmalar, banklar va turli tashkilotlar investorlar hisoblanadi. Obligatsiyalarni sotishdan tushgan pul davlatning daromadini tashkil etadi, ammo u davlatning qarziga ham aylanadi. Davlat obligatsiyalari muayyan muddatlar uchun chiqariladi. Turli mamlakatlarda qisqa muddatli, o‘rtacha muddatli va uzoq muddatli davlat obligatsiyalari mavjud. Muddati kelgach, obligatsiyalarni davlat kaytadan sotib oladi. Davlat obligatsiyalari daromad keltiruvchi qimmatli qog‘ozlar turiga kiradi.⁸

Yevroobligatsiyalar moliyaviy “lahja”da yevrobond deyiladi. Bu emitent(qimmatli qog‘ozlar va qog‘oz pul chiqarish huquqiga ega bo‘lgan davlat, bank yoki idora) uchun xorij valyutasida chiqarilgan uzoq muddatli qimmatbaho qog‘ozlardir. Emitentning ishonchlilagini reyting agentliklari kuzatib boradi. Yevroobligatsiyalar 1 yildan 40 yilgacha bo‘lgan muddatga mablag’ resurslarini olishdan manfaatdor bo‘lgan hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, yirik korporatsiyalar tomonidan chiqariladi.⁹

Demak, pul ekvivalentlarining hisobini yuritishga mo’ljallangan 5610-“Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)” schotning tarkibiy qismini va uning hisobini xalqaro standartlarga asoslanib takomillashtirish, pul ekvivalentlarining turlari bo‘yicha hisobini yuritish uchun subschotlar kiritilshi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni 2016 yil 13 aprel.

⁷ <https://zarnews.uz/uz/post/korporativ-obligaciya-nima-va-u-qanday-maqsadda-chiqariladi>

⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_obligatsiyalari

⁹ <https://xs.uz/uzkr/post/evrobondlar-ozbekistonga-qandaj-fojda-keltiradi>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 fevraldag'i PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
3. 9-son BHMS "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 4.11.1998 yilda qayd etilgan, №519
4. 7-son BHXS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" 1994 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan.
5. "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Internet saytlari:

6. <http://bhms.uz/wp-content/uploads/2017/07/21.doc>
7. <https://www.wallstreetmojo.com/cash-equivalents/>
8. <https://kapitalbank.uz/upload/medialibrary/c04/Omonat-bu-nima.pdf>
9. <https://lawyer-great.ru/uz/sberegatelnye-i-depozitnye-sertifikaty-sberegatelnyi/>
10. <https://zarnews.uz/uz/post/korporativ-obligaciya-nima-va-u-qanday-maqsadda-chiqariladi>
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_obligatsiyalari
12. <https://xs.uz/uzkr/post/evrobondlar-ozbekistonga-qandaj-fojda-keltiradi>